



NAVOIY ASARLARINI O`ZLASHTIRISHDA YANGI PEDAGOGIC TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI VA SAMARASI

Almardonova Dilafruz Sayfiyevna, Gulruh Azizova

Shahrisabz shahar 3-maktab o`qituvchilari

Annotatsiya: Ma`lumki, maktabda Alisher Navoiyning epik asarlarini zamonaviy usullarda o`rgatishda o`quvchilar Navoiyning epik asarlariga qiziqishi uyg`onadi. Shuningdek, o`quvchilarni ta`lim jarayonining ijrochisiga aylantiradi va adabiy ta`lim samaradorligini oshiradi. Natijada shoirning epik asarlarini o`rganish zamonaviy usullarda tashkil etilganda o`quvchilarda shaxsiy fikr, munosabat, xulosa paydo bo`lishiga erishiladi. Kalit so`zlar: bilim, ko`nikma, natija, shoir, ijod, ta`lim, ma`naviyat.

Аннотация: Как известно, когда эпические произведения Алишера Навои преподаются в школе на современном уровне, ученики начинают интересоваться эпическими произведениями Навои. Это также превращает учащихся в исполнителей образовательного процесса и повышает эффективность литературного образования. В результате при современной организации изучения эпических произведений поэта у учащихся возникнет личное мнение, отношение, вывод.

Ключевые слова: знание, умение, результат, поэт, творчество, образование, духовность.

Annotation: As it is known, when Alisher Navoi's epic works are taught in school in modern ways, students become interested in Navoi's epic works. It also turns students into performers of the educational process and increases the effectiveness of literary education. As a result, when the study of the poet's epic works is organized in modern ways, students will have a personal opinion, attitude, and conclusion.

Key words: knowledge, skill, result, poet, creativity, education, spirituality.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning epik asarlarini zamonaviy usullar orqali o`rgatish o`quvchilarga asarning asl badiiy qimmatini to`laroq anglash, timsollar mohiyatini teranroq tushunish imkonini beradi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, interfaol usullar



o'quvchilarni faollashtirishi, ular ulug' shoir asarlarini o'zlari mustaqil o'zlashtirishga kirishishi, o'quvchilar o'zaro bahs-munozara asnosida asar mohiyatini teranroq anglashida yordam beradi. O'quvchilarda samarali muloqot va o'z fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish malakalari rivojlanishi uchun adabiy ta'lif jarayonida zamonaviy usullardan foydalanish samara beradi. Amaliyotda ko'pchilik o'qituvchilar usul, shakl, vosita kabi tushunchalar an'anaviy ta'lif usullarini qo'llashning yagona maqbul usuli deb hisoblashadi. Biroq Navoiy asarlarini o'zlashtirishda bugungi axborot asri yoshlariga yangi metodlardan foydalanish kerak. Sababi mazkur dostonlar mazmun-mohiyatining tasavvufiy yo'nalishdaligi o'quvchiga mavzuni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diradi. Tilining murakkabligi, ushbu dostonlar yuzasidan qo'shimcha manbalarning kamligi, mavjud metodik ashyolarning o'quvchilar yosh xususiyatlariga mos emasligi fikrimizni tasdiqlaydi. O'qituvchilarning bir qolipda dars o'tishi, dars ko'rgazmaliligi va texnik ta'minotining qashshoqligi, aksariyat o'qituvchilarning "Xamsa" asari mohiyatini tushuntirishda syujetbozlikka yo'l qo'yishi, dars jarayonida lug'at bilan ishslashga kam e'tibor berilib, darslikdagi nasriy bayon bilangina cheklanilishi ham amaliyotda ko'p kuzatilgan kamchiliklardir.

Navoiyning "Xamsa" asarini o'quvchilar tomonidan puxta va samarali o'zlashtirilishiga erishishda "Bumerang", "Tarmoqlar", "Kichik guruhlarda ishslash", "Charxpalak", "BBB", "Zig-zag", "Elpig'ich", "FSMU" kabi interfaol usullar eng qulay va qiziqarli metodlar ekani bois, ularni amaliyotga qo'llash ijobiy samara keltiradi. Masalan, Interfaol ta'lifning samarali usuli bu "Charxpalak" usulidir.

"Charxpalak" metodi mavzu yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda puxta o'zlashtirishda samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo'llash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Sinf kichik guruhlarga bo'linadi.
2. Har bir guruhga savollar bo'lib beriladi.
3. Har bir guruhga qog'oz beriladi va guruh a'zolari 4-5 daqiqa mobaynida o'zaro fikrlashib, javobni qog'ozga yozadilar.



4. Belgilangan vaqt o'tgach, o'qituvchining ishorasi bilan mikroguruhlar raqamiga qarab javoblar yozilgan qog'ozni keyingi guruhga uzatadilar.
5. Guruh har bir savolga o'zidan oldingi guruh yozgan qo'shimcha javobiga qo'shimcha qiladilar.
6. Har bir guruh a'zolari o'zining yozgan javobini izohlab beradi.
7. Har bir guruhning savollarga yozgan javobi boshqa guruhlarning qo'shimcha izohlari berilgan holatda o'ziga qaytib keladi. Demak, savollar yozilgan qog'oz guruhlar orasida aylanib, to'ldirilgan javoblar shaklida keladi.

Ushbu metodning afzalligi shundan iboratki, bunda guruh a'zolari oldindan tayyorlab qo'yilgan mazmunni, ya'ni savollarga bo'lib tashlangan mavzuni to'liq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir guruhning fikrlari muhokama qilinishi natijasida guruh a'zolari o'z yutuq va kamchiliklarini aniqlab oladi. Eng muhimi, o'quvchilar mustaqil fikrlashga, faollikka yo'naltiriladi va ularda bilim shakllanibgina qolmay, bir-birlarini baholay olish ko'nikmasi ham paydo bo'ladi. Shu yerda muammoli va hamkorlikdagi ta'lim usullari o'zaro uyg'unlashadi. Ya'ni, o'quvchi ham yolg'iz izlanadi, ham o'z fikrini o'rtoqlariga yetkazib, asoslash orqali birgalikda bilim o'zlashtiradi.

Bundan tashqari Navoiy hikmatli so'zlarini o'rganishda va o'qitishda «Klaster» usulini qo'llash ham ahamiyatga ega deb o'ylaymiz. Bu ularning maqsadi, o'quvchilarda hikmatli so'zlarni o'rganishda qulay usul bo'lganligi uchun, har bir tomonini yoritib berishda xizmat qiladi. «Yosh Navoiyshunoslar» to'garagini tashkil etish boshqa to'garaklardan ish yuritish va ish uslubiga ko'ra farqlanadi, shu bilan birga boshlang'ich sinflarda «Yosh Navoiyshunoslar» to'garaklarini tashkil etish va ularga o'quvchi-yoshlarni jalg'etish juda muvaffaqiyatli samara beradi.

Adabiyotlar ro`yhati:

1. Saribaeva M.U., Zakbarov U. Umumta'lim maktablarining 9-sinfida "Hayrat ul-abror" dostonini o'rganish. // Til va adabiyot ta'limi. 2005. 5-son, 9–14- b.



2. Saribaeva M.U. Umumta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim usullarini tatbiq etishning ilmiy-metodik yo'llari. // Maktab va hayot. -T.: 2007. 5–6-son. 50-52-b.
3. Saribaeva M.U. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatish. –Guliston: GulDU, 2008. -78 b.
4. Saribaeva M.U. Navoiy asarlarini o'rgatish orqali bolalarda shaxs sifatlarini tarbiyalash tajribalaridan: Respublika ilmiy anjumanining materiallari (2008 yil, 20–21 noyabrъ). - Guliston: 2008. 131–132-b.

